



ODIL YOQUBOVNING "OQQUSHLAR OPPOQ QUSHLAR" ROMANIDA QO'LLANGAN KITOBIIY LEKSIKA

¹Amirqulov Sanjar Sayitmurotovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

amirqulovsanjar@gmail.com

²Bobomurotova Mahfuza Turobovna

Termiz davlat universiteti Magistranti

mahfuzabobomurotova@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7972625>

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2023

Accepted: 24th May 2023

Online: 25th May 2023

KEY WORDS

Kitobiy leksika, funksional-stilistik, publististik leksika, rasmiy leksika, ilmiy terminlar, badiiy so'zlar, siyosiy muhit, prezidium, delegatsiya, anjuman, e'lon, militsiya, papka, huquq, loyiha, tasdiqlash, telegramma, arxeolog, san'atshunos, jiguli, Volga, Moskvich, kilometr

ABSTRACT

Maqolada O'zbek adabiyotining atoqli adiblaridan Odil Yoqubovning "Oqqushlar oppoq qushlar" romanining kitobiy leksikaga oid so'zlari tahlilga tortilgan.

Kitobiy leksika faqat yozma adabiy til traditsiyasiga bog'liq bo'lgan shu nutq turiga xoslangan birliklarni o'z ichiga oladi. Kitobiy leksikani so'zlashuv leksikasiga qiysolaydigan bo'lsak, uning kitobiylik belgilari aniqlashib boradi.

Dastlab, kitobiy leksikani funksional-stilistik jihatdan shartli ravishda publististik leksika, rasmiy ishga oid so'zlar, ilmiy terminlar va badiiy so'zlar guruhlariga bo'lib olish maqsadga muvofiqdir. Badiiy nutq keng qamrovli leksik tarkibni talab qilganligi sababli uning qurilishini faqat badiiy uslubga xoslangan so'zlarga tashkil qila olmaydi. Vaholanki, voqealari aks etayotgan davr, xarakteri ifoda etilayotgan obraz va qahramonlar, ularning yashash hududlari va milliy qiyofasi badiiy asarda o'z ifoda maqsadiga to'la erishishi uchun badiiylikka xizmat qiluvchi turli san'atlar, sintaktik figuralar, troplar singari vositalardan tashqari ilmiy terminlarni, publististik so'zlarni va rasmiy ishga oid leksikaga ham ehtiyoj sezadi.

Odil Yoqubovning "Oqqushlar, oppoq qushlar" romanida kitobiy so'zlarga keng o'rin ajratilgan. Publististik nutq ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid so'zlar bo'lib "Oqqushlar, oppoq qushlar asari"da davr muhitiga oid ijtimoiy jamiyatning turli sohalariga oid bo'lgan ma'lum tushunchalarni asarda uchratishimiz mumkin. Masalan,

Keyin... shu yil bahorda viloyat markazida cho'lquvarlar anjumani bo'ldi. Garchi, Mehriniso brigadir bo'lmasa ham, direktor uni ham birga olib ketdi. Sovhoz delegatsiyasi ikkita yosh juvon bilan direktordan iborat edi. Anjumanda Mehrinisoni kutilmaganda prezidiumga



saylashdi, dokladda esa viloyatdagi eng ilg'or cho'lquvarlar qatorida tilga olib o'tingdi. Shunday bo'ldiki, tanaffus vaqtida ko'pgina muxbirlar unga asalga yopishgan pashshaday yopishib suratga tushirishdi, og'ziga mikrofon tutishib, toza «sayratishdi»[1].

Publististikaga oid so'zlar badiiy nutqda keng qo'llaniladi, ammo gazetadagi singari emas, badiiy tarzda ifodalaydi.

Ushbu parchada qo'llangan **anjuman, delegatsiya, prezidium** so'zlari davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini tasvirlash uchun ishlatilgan publististik so'zlardir.

Publististik nutq mohiyatan va nutq vositalarining qo'llanilishi jihatidan badiiy nutqqa juda yaqin. Binobarin, publististik nutq ham badiiy nutq singari estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi. Biroq, lug'aviy vositalarni keng ko'lamda qamrab olish hamda uslubiy vositalarning xilma-xilligi jihatidan nutqning bu ikki turi o'zaro farqlanadi. Ma'lumki, bu vositalar badiiy nutqda xilma-xildir.

Asarning publististik leksikasiga to'xtaladigan bo'lsak, ular mavzu ko'lami jihatidan ikki turga ajraladi: maxsus publististik so'zlar va ijtimoiy-siyosiy so'zlar. Ijtimoiy-siyosiy so'zlar qatoriga "sobiq SSSRda qishloq xo'jaligida tashkil etilgan yirik davlat xo'jaligi" ma'nosini anglatgan **sovxoz** (*Bugun oqshom uni sovxoz direktori chaqirib qoldi*), almashlab ekishga amal qilmagan holda dalaning o'zida faqat bir xil ekinni muttasil yetishtirishni anglatuvchi **monokultura** (*Bu, deydi, hammayoqni bir xil ekin qilib, monokultura qilib yuboribsiz-ku*), o'sha davrda faoliyat ko'rsatgan **rayon matbuot jamiyati** (*Ammo bir yil o'tmasdanoq uni rayon matbuot jamiyatiga boshliq qilib ko'tarishdi*), **viloyat xalq kontroli komiteti** (*Do'st-birodarlarni ishga solib, viloyat xalq kontroli komitetidan bitta odam topdi*), **respublika xalq kontroli komiteti** (*U ko'pdan beri viloyatdan markazga, respublika xalq kontroli komitetiga o'tish harakatida yurar ekan*) singari so'z va so'z birikmalar kiradi. Badiiy matnda bu kabi atamalarning keltirishning asosiy sababi voqealar yuz berayotgan davrning ijtimoiy-siyosiy ruhini kitobxonga sezdirishdir.

Rasmiy ishga oid so'zlar badiiy asarda qo'llanilganda ham, asosan, rasmiy uslubga xoslikni ta'minlash vazifasini bajaradi. Biroq badiiy asarlarda qahramon nutqini xarakterlash, qahramonning saviyasini ko'rsatishda rasmiy ishga oid so'zlardan uslubiy maqsadlarda foydalaniladi. "Oqqushlar, oppoq qushlar" romanida rasmiy ishga oid **e'lon** (*Tashqari eshik tepasida ko'k bo'yoq bilan qing'ir-qiyshiq yozilgan e'lon osig'liq turardi: "Hamma-paxtada!"*) so'zi keltirilgan. Ushbu leksema mustabid hokimiyat yuritgan siyosatning ayrim qirralarini ochishga xizmat qilgan. Mazkur guruh so'zlarini davom ettiradigan bo'lsak, hozir ham rasmiy-yuridik organ hisoblangan **militsiya** (*O'rmon xo'jaligidagi ish hali ham militsiyaga o'tmagan*), "hujjatlar yig'indisi" ma'nosini bildiradigan **papka** (*Farmonov kechasi uning papkasidagi hujjatlarni ko'rib shunday quvonib ketdiki...*) singari so'zlar uchraydi. Bu kabi so'zlar har jihatdan rasmiylikni saqlab qolgan va qahramonning huquqiy savodxonligini, saviyasini ochiqlash uchun istifoda etilgan.

Rasmiy ishga oid so'zlarni B. Umurqulov rasmiy hujjatlarga oid so'zlar, idora ishlariga oid so'zlar, huquqiy va diplomatik ishlarga oid so'zlar, ish qog'ozlariga oid so'zlar kabi turlari mavjud ekanligini alohida qayd etadi[2]. Asarda ushbu guruhlarga oid so'zlar quyidagicha qo'llangan:

Rasmiy hujjatlarga oid so'zlar

hujjat-u shartnomalarning aksariyatiga o'zlari qo'l qo'yganlar!



Idora ishlariga oid so'zlar:

*Yo'q, bu haqorat, bu adolatsizlikka toqat qilib bo'lmaydi! Bu **huquqni** unga kim bergan?*

Kim o'rgatgan?

Huquqiy va diplomatik ishlarga oid so'zlar:

*shundan beri **loyihani** ko'rish va **tasdiqlash** masalasi umuman to'xtab qoldi.*

Ish qog'ozlariga oid so'zlar

Telegramma Shoqosimdan bo'lib unda «Xavotir olmanglar. Tekshirishyapti. Hammasi joyiga tushadi», deb yozilgan edi.

Ilmiy terminlar badiiy nutqda qo'llanilganda, asosan, fanning qaysi sohasiga oidlik xususiyatini saqlaydi. Chunki ilmiy terminlar badiiy nutqda ham, asosan, ilmiy nutqda bajaradigan vazifasini bajaradi.

*Nigora **arxeolog** va **san'atshunos**, ular boshda tillari tillariga, dillari dillariga to'g'ri kelib, uch-to'rt yil juda inoq yashashdi. Ushbu gapdagi ilmiy terminlarning badiiy asarda qo'llanilishi personajlarning ilmiy ish bilan shug'ullanishi, kasbi haqida ma'lumot beradi.*

Nutq turlarining mohiyatidan kelib chiqqan holda ilmiy nutq uchun ilmiy terminlar, rasmiy nutq uchun rasmiy ishga oid so'zlar, badiiy nutq uchun badiiy so'zlar, so'zlashuv nutqi uchun og'zaki nutqqa oid so'zlar shu nutq turining leksik jihatdan xarakterlovchi lug'aviy birliklar sanaladi. Ilmiy terminlar badiiy nutqda qo'llanilganda ham, asosan, fanning qaysi sohasiga oidlik xususiyatini saqlaydi. Chunki ilmiy terminlar badiiy nutqda ham, asosan, ilmiy nutqda bajaradigan vazifasini bajaradi[2].

Xususan, romanda fan va texnikaga oid terminlar keng qamrovli foydalanilgan. Asarda transport texnikasiga oid terminlar talaygina qo'llanilgan bo'lib, bu ham asardagi o'sh davr muhiti va personajlarning moddiy holati haqida o'quvchiga ma'lumotlar taqdim etadi. Masalan:

—Voy o'lmasam! Bizni **«Jiguli!»**

— Nima deyapsiz? Qaysi **«Jiguli»ni** aytyapsiz? — dedi Fotih hansirab.

— Aytyapman-ku, bizni **«Jiguli»** deb. Rulda Shoqosim akamlar! Ko'rdilar bizni!

— Mehriniso shunday deb, yalt etib orqasiga qaradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "Jiguli" termini asarda 26 marta qo'llangan.

Bundan tashqari «Volga», «Jiguli», «Moskvich», «Gazik» kabi o'z davrining mashhur avtomashina nomalari ham asar voqealari davri haqida ma'lumot beradi.

*Kelin-kuyov lentalar taqilgan **«Volga»**da, Shoqosimning o'n nafar do'sti minib olgan o'n chog'liq **«Jiguli»** va **«Moskvich»**larda barobar signal berib, qishloqqa kirib kelishganda ko'chalarni to'ldirgan olomonning shodon g'alag'ovuri, bolalarning xurram qiyqirig'i, karnaysurnaylarning g'olibona vot-voti-yu, nog'oralarning gumbur - gumburidan osmoni falak larzaga tushgandi!*

Shunday qilib asarda dehqonchilik buyumlaridan **panshaxa** (Bir necha yigitlar bir tonnacha paxtani panshaxa bilan ag'darib, oftobda quritishmoqda edi) qishloq xo'jalik texnikasiga oid **traktor** (Shavvoz undan bog' ishlariga juda qo'l keladigan mitti chex traktorini so'rab borgan edi), **pritsep** (Pritseplar, shiyponlar, chumoliday o'rmalab yurgan odamlar...), ilmiy tadqiqot faoliyatiga doir **maqola** (Kechagi ikki maqolangiz ja zo'r chiqibdi), kommunikativ texnika mahsuli bo'lgan **telegramma** (Juda vaqtida keldingiz-da, kecha telegramma beruvdik), matematikaga oid **kilometr** (Bu yerdan nari borsa yigirma kilometr



keladi), ta'linga oid bo'lgan **aspirantura** (*Rasul olim bo'lish niyatida aspiranturada qoldi*) singari terminlar adib tomonidan qo'llanilgan.

Asarda *Ha, kayflari sal chatog'roqmi? — Muzaffar og'aynisini qo'ltiqlab, o'ng qo'ldagi eshikka boshladi. — Davlenielari tushib ketmadimi ishqilib, tushib ketgan bo'lsa hozir ko'tarib qo'yamiz!..parchasida davleniya termini og'zaki nutqda qo'llanilgan bo'lib, qon bosimi ma'nosini anglatadi.* Shuningdek, tabobatga oid yana bir qancha terminlar qo'llangan:

1) **Isitmang** juda baland-ku! Qaerda bunday **shamollab** qolding, bolam?

2) Beloborodov yotgan **yurak kasalliklari** klinikasi shahar markazidan ancha yiroqda, biroq, juda fayzli joyga, katta anhor sohilidagi mevazor boqqa joylashgan edi.

Asar matnida qo'llangan badiiy so'zlar miqdori anchaginani tashkil qiladi. Bu, albatta, tabiiy hol. Chunki, matn badiiy ekan, uning asl mohiyatini badiiylikka xizmat qiluvchi so'zlar namoyon qiladi. Ushbu so'zlar badiiy so'zlar deb nomlanib, biz o'rganayotgan kitobiy leksika tarkibining salmoqli qismini tashkil qiladi.

B. Umurqulov badiiy so'zlar haqida fikr yuritir ekan ularning xususiyatlarini shunday tasniflaydi:

a) boshqa nutq turlarida deyarli qo'llanilmaydi;

b) umumise'moldagi sinonimlardan nozik ma'no ifodalash xususiyatlarining mavjudligi bilan farqlanadi; d) talaffuzda jarangdor, mazmunan jozibali bo'lganligi uchun badiiy fikr ifodalashga mos.[2]

Romanda ijodkor badiiy so'zlardan ustalik bilan foydalanib, o'z oliy maqsadiga erishishga harakat qilgan. Badiiy so'zlar, o'z navbatida, ma'noviy jihatdan eskirgan va poetik so'zlarga bo'linadi. Dastlab asarning eskirgan so'zlardan iborat leksikasi bilan tanishamiz.

Tilshunos olim Q. Samadov ta'kidlaganidek, arxaik va tarixiy so'zlarni badiiy nutqda qo'llanilishidan asosiy maqsad davr ruhini berish, personajlar nutqini xarakterlash, voqelikni tabiiy tarzda gavdalantirishdan iborat[3]. Shunday ekan, "Oqqushlar oppoq qushlar" romanida o'sha davr muhitini to'laqonli yaratish, o'quvchiga ma'lum bir so'zlarning hozir eskirgan bo'lsa ham, avvalgi davrda iste'molda bo'lganini anglatish maqsadida foydalanilgan **jom** (*Oysuluv katta mis jom bilan ikki chelak issiq suv hozirlab qo'ygan ekan*) so'zi uy ro'zg'or buyumini anglatadi; harbiy sohaga doir eskirgan **sarkarda** (O'tmishda avom xalq hazrat Ukkosha deb atagan bu qabr aslida katta bir sarkardaning mozori bo'ib chiqadi) so'zi qahramonning o'tmishda harbiy lavozimga ega bo'lganligini ko'rsatish uchun xizmat qilgan.

Asarda qo'llangan poetik so'zlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ularning har biri go'zal ma'no nozikliklariga ega va umumistemoldagi sinonimlaridan farqli ravishda, ma'lum nutq uslubi uchun xoslangan. Masalan, **orti** (*Vertolyot "Bog'i eram"ning ortida, boya samolyot qo'ngan taqir joyda kutib turardi*) so'zi umumiste'moldagi orqasi so'zi bilan, **batamom** (*U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi*) so'zi umuman so'zi bilan ma'nodosh, belgi-xususiyat, emotsional-ekspressivlik jihatdan farqlanmaydi. Ammo bu so'zlarning dastlabkilari orti va batamom so'zlari badiiy nutq uchun tabaqalangan. Bu ularning ixcham va jarangdorligi bilan izohlanadi. Badiiy nutqqa xos **jilva** so'zi, asosan, "noz-karashma bilan qarash" ma'nosini ifodalaydi. Ammo biz tahlil qilayotgan nasriy matnda **jilva** so'zi "nozlik ko'z qarash" ma'nosini emas, balki "aks etmoq" ma'nosini ifodalagan: *Simobday miltiragan mungli ko'zlarida hayratomuz bir ifoda jilva qilardi.*



Nutq ma'no hosil qilish jarayoni bo'lganidek, so'z yasalishi uchun ham asosdir. Yangi yasamalar, ko'proq, badiiy nutqda paydo bo'lib, shu nutq orqali umummuomalaga kirib boradi. Ana shunday badiiy nutqda yasali, umumiste'molga kirgan so'zlar qatoriga "Oqqushlar, oppoq qushlar" romanida qo'llangan **xushlamoq, xushqad, xushsurat, nohalol, shersimon** singari so'zlar kiradi. Shu o'rinda **nohalol** (*Shaharga jo'natib yuborgani ham endi ko'ziga nohalol bir narsa bo'lib ko'rina boshladi*) so'zining poetik vazifasiga diqqat qaratmoq joiz. Adabiy tilda "halol" so'zining zid ma'nosini ifodalovchi "xarom" so'zi bo'lishiga qaramasdan, adib "nohalol" leksemasini yasaydi. Buning asosiy sababi xaromning ma'nosi va ta'sir kuchini biroz bo'lsa-da kamaytirishdir. Bu esa shu so'zni o'z nutqida ishlatgan asar qahramonining yumshoq fe'lliligi va juda yuqori didga ega ekanligini ko'rsatadi.

So'zimiz oxirida shuni aytishimiz kerakki, kitobiy leksika badiiy nasr lug'aviy xususiyatlari tadqiqida muhim jihat sanaladi. Bu lug'aviy qatlam tilning yozma ko'rinishi uchun xos bo'lgan turli uslublariga oid so'zlarni qamrab olishini kuzatishimiz mumkin. Kitobiy leksika publitsistik leksika- ijtimoiy- siyosiy so'zlar, maxsus publitsistik so'zlar, badiiy so'zlar-poetik so'zlar, eskirgan so'zlar, rasmiy ishga oid so'zlar- rasmiy hujjatlarga oid so'zlar, huquqiy va diplomatik ishga oid so'zlar, idora ishlariga oid so'zlar, ish- qog'ozlariga oid so'zlar, ilmiy terminlar- texnikaga oid terminlar, tabiiy fanlarga oid terminlar, ijtimoiy fanlarga oid terminlar, tabobatga oid terminlarni o'z ichiga olishi bilan xarakterlanadi. Asarda bu so'zlar ko'plab uchraydi. Yozuvchi bulardan juda chiroyli foydalana olgan.

References:

1. Odil Yoqubovning "Oq qushlar oppoq qushlar" Toshkent "sharq" 2012.
2. Umurqulov B. Badiiy nasr jozibasini.-Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021
3. Самадов Қ. Узбек тили услубияти. - Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
4. Sayitmurotovich, A. S., & Shuhratjon o'g'li, I. S. (2023). JAVLON JOVLIYEV IJODIDA VATAN, MILLAT, MASALALARI. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 3(3), 220-224.
5. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. „O'zbek nutqi madaniyati ocherklari“. - Toshkent: Fan. 126- bet.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-II tom. -M.: Русский язык. 1981.
7. Nurmatov, Z. O., Tursunpulatova, K. A., & Nasriddinova, Z. N. (2023, May). THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. In International Conference on Science, Engineering & Technology (Vol. 1, No. 1, pp. 99-103).
8. Shamsiddinovich, M. R., & Obidjonovich, Z. N. (2021). Advantages and Improvements of E-Textbook Teaching of Computer Science in General Secondary Education. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 2(12), 71-74.
9. Nurmatov Z. O., Chorshamiyeva O. N., Pirimova F. A. TA'LIMDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 12-18.